



ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

MASOFAVIY TA'LIM MODELLARI VA UNING XUSUSIYATLARI

Eshqoraev Q.A.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim modellari, eksternat, konsorsium, franchayzing, validatsiya, uzoqlashtirilgan auditoriyalar, loyihalar.

Ключевые слова: дистанционное обучение, модели дистанционного обучения, внешние, консорциум, франчайзинг, валидация, удаленные аудитории, проекты.

Keywords: distance learning, distance learning models, external, consortium, franchising, validation, remote audiences, projects.

Bugungi kunda informatsion texnologiyalarning rivojlanishi, xalqaro kommunikatsion aloqalar fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyasi bilan xarakterlanadi. Insoniyatning butun umr davomida ta'lim olishini, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashini, kompetensiyalarini takomillashtirishini taqozo etmoqda, bu esa, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlanishi va elektron aloqa tizimlari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonlarda masofaviy o'qitish tizimi dolzarb ahamiyat kasb etib, uning uslublari, texnologiyalari, usul va vositalarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy ta'lim tizimi o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va amaliyoti masalalari, uning didaktik va uslubiy asoslari, shuningdek, yurtimiz olimlari N.Muslimov, A.Abduqodirov, U.Begimkulov, A.Hayitov, M.Lutfillaev, N.Taylaqovlar tomonidan tadqiq qilingan. Rus olimlari A.Andreev, G.Levkin, Ye.Polat, N.Naydenova, I.Varganova, M.A.Malisheva, N.Valyushina, R.Pimonov, N.Gavrilov, I.Zadorojnyaya, S.Berejnaya, S.Bogdanovalar ishida masofaviy ta'lim tizimi modellari, rivojlantirish masalalari, masofadan o'qitish texnologiyalarini qo'llash, o'quv mazmunining variativligi kabi masalalar bayon etilgan. Masofaviy ta'lim tizimining yuqorida tadqiq qilingan jihatlarini xorij olimlari I.Allen, A.Amadco, J.Seaman, D.Keegan, H.Kappel, B.Lehmann, J.Loepfer, B.Holmberg, M.Dougiamas, P.Taylorlar izlanishlarida ham o'z aksini topgan.

Xorijiy mamlakatlarda masofadan o'qitish borasida boy tajriba to'plangan. 1969 yilda Angliya premer-ministri G.Vilson tashabbusiga ko'ra masofaviy ta'lim texnologiyasi shakllantirilgan bo'lib, ammo masofadan o'qitish ancha oldinroq, ya'ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan.

Bundan tashqari, 1858 yildan boshlab ularning mustaqil bilim olishlari, barcha ixtisosliklar va barcha sohalaridagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan. 1938 yildan buyon Sirtqi ta'lim bo'yicha Xalqaro kengash, 1982 yildan boshlab masofaviy ta'lim bo'yicha Xalqaro Kengash nomi bilan mashhur xalqaro ta'lim tashkilotlari sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ochiq universitetlardagi masofaviy ta'limda o'qish

xarajatlari an'anaviy institutlarda o'qitishga qaraganda 8–10 marta arzon. Masalan, Angliyada turg'un o'qishga 3000, masofaviy o'qitish orqali bilim olishga esa atiga 300 funt sterling to'lanadi. Binolarga xizmat ko'rsatish, jihozlar va laboratoriya uchun xarajatlar, o'qituvchi, ma'muriyatlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar shtati qisqaradi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 27 martda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy etish to'g'risida"gi buyrug'iga ko'ra Respublikamizdagi mavjud OTMLar masofaviy o'qitish texnologiyalarini yaratish va ishga tushirish yuzasidan ishlarni boshlagan. Ilmiy manbalarning tarixiy analitik tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, ko'plab mualliflar masofaviy o'qitish modellarini tuzishga o'z e'tiborlarini qaratishgan, jumladan, E.S.Polat rahbarligidagi jamoa o'z monografiyalarida quyidagi 6 ta modelni ko'rsatganlar.

Mavzuni nazariy jihatdan ko'rib chiqishda birinchi navbatda "masofaviy o'qitish" tushunchasining o'ziga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Masofaviy o'qitish saralangan innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va shakllariga ega axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim shakli bo'lib, u talabaga ta'lum bir standartlar va qoidalar asosida o'quv sharoitlari va o'zaro muloqatni ta'minlab beruvchi tizim hisoblanadi.

Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari moslashuvchanlik, iodonillilik, parallellilik, keng qamrovlilik, iqtisodiy tejamkorlik, ijtimoiy teng huquqlilik, internatsionalilik kabilardan iborat. Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini birma-bir izohlab o'tadigan bo'lsak, ular o'zaro bir-biridan bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi. Jumladan, moslashuvchanlik (ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imoniyati mavjudligi bilan, modullilik bir-biri bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini tuzish imkoniyati mavjudligi bilan, parallellilik o'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi bilan, keng qamrovlilik ko'p sonli talabalarining bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va b.) zahiralarga murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli talabalarining kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati mavjudligi bilan, iqtisodiy tejamkorlik o'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish orqali mutaxassislarini tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytirish imkoniyati mavjudligi bilan, ijtimoiy teng huquqlilik ta'lim oluvchining yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli ta'lim olish imkoniyati mavjudligi bilan va internatsionalilik ta'lim sohasida erishilgan, jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati mavjudligi bilan tasniflanadi.

Masofaviy ta'lim o'z oldiga barcha ta'lim oluvchilarning birdek talim olishiga sharoit yaratib berishni, ta'lim turlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirgan holda ta'lim berish sifat uzluksiz ta'lim darajasini oshirishni, asosiy faoliyat bilan bir qatorda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatini yaratib berishni, uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishni, yangi tamoyillar asosidagi ta'lim darajasini ta'minlashni maqsad qilib belgilagan. Masofaviy o'qitishda ta'lim beruvchi imkoniyatlari ham kengayib, u o'zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy faoliyatini chuqurlashtirishi talab etiladi.

Masofaviy ta'limning bir necha modellari mavjud, bu modellarni tashkil etish esa quyidagi vaziyatlari bilan bir-biridan farq qiladi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan hududlar mavjudligi); mamlakatni kompyuterlashtirish

va axborotlashtirish darajasi; transport va kommunikatsiyalarni rivojlanish darajasi; masofaviy ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi; ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi; mamlakatning ta'lim sohasidagi siyosati.

Masofaviy ta'lim modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini izohlab o'tish uning imkoniyatlarini yanada kengroq tushunishga olib keladi.

Masofaviy ta'limning birlamchi modeli faqatgina ta'lim oluvchilar bilan masofaviy ishlashda foydalaniladi. Bunda ta'lim oluvchilar virtual holatda ta'lim beruvchiga biriktiriladi, topshiriqlarni topshirish uchun bo'limlar tashkil etiladi. Bu modelda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchiga o'quv shakli va usulini tanlashga imkoniyatlar beriladi.

Ikkilamchi model esa, an'anaviy ta'limda taxsil olayotgan talabalar bilan ishlash uchun tashkil etiladi. Har ikki ta'lim masofaviy ta'lim modelida ham bir xil o'quv dasturi, jadval, nazorat shakllari va baholash mezonlaridan foydalanish mumkin.

Aralashgan modelda kunduzgi va masofaviy ta'lim ta'lim turlarining uyg'unligini ta'minlash maqsadida tashkil etilishi bilan xarakterli bo'lib, ta'lim oluvchilar o'quv kursining bir qismini kunduzgi an'anaviy asosda, boshqa qismini esa masofaviy ta'limda o'tashi mumkin.

Konsorsium modeli ikkita oliy ta'lim muassasasini o'zaro birlashtirishni talab etadi. Oliy ta'lim muassasasining birida o'quv kurslari tashkil etilsa, ikkinchi ta'lim muassasasi esa shu o'quv kurslariga ta'lim oluvchilarni ta'minlaydi. Bu ta'lim jarayoniga sohaga yaqin bo'lgan boshqa muassasalar ham qatnashishi mumkin.

Franchayzing modelida ikkita oliy ta'lim muassasalari tomonidan yaratilgan o'quv kurslari o'zaro almashinadi. Masofaviy ta'lim tizimida etakchi bo'lgan, tajribali ta'lim muassasasi bu tizimni endi tashkil qila boshlagan ta'lim muassasasiga o'z o'quv kurslarini, taklif va tavsiyalarini taqdim qiladi.

Validatsiya modeli oliy ta'lim muassasalari va ularning xududiy filiallari bilan o'zaro hamkorligida tashkil etiladi. Bunda asosiy etakchi oliy ta'lim muassasasi o'quv kursini tashkil etadi, o'zlashtirish yakuni bo'yicha diplomlarni kafolatlaydi. Xududiy filiallar esa ta'lim oluvchilarni ta'minlaydi.

Uzoqlashgan auditoriyalar modelining o'ziga xos tomoni esa, bir ta'lim muassasasida bo'lib o'tgan o'quv kurslar videokonferensiyalar, virtual kanallar, telekommunikatsiya xizmatlari orqali sinxron ravishda boshqa maydonga uzatiladi. Bu modelda informatsion va kommunikatsion imkoniyatlardan keng foydalaniladi. Uning aralashgan model bilan farqli tomoni, unda an'anaviy ta'limda qatnashmaydi.

Masofaviy ta'limda loyihalar modeli ham mavjud bo'lib, bu model davlat taraqqiyoti yoki ilmiy-tadqiqotchilik yo'nalishidagi dasturlarni amalga oshirish uchun yaratiladi. Bunda asosiy faoliyat masofaviy ta'lim mutaxassislari va pedagoglar to'plangan ilmiy-metodik markazda bajariladi.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda kurs vazifasini shakllantirish, istiqbolli natijalarga javob beradigan metodologiya va texnologiyani tanlash hamda quyidagi turli xil o'quv-bilish jarayonlarini yaratish lozim, jumladan, hamkorlik, o'quv va amaliy topshiriqlar, interfaol bahslar, modellash, innovatsion yondashuv, kreativ masalalar va hokazo.

Masofaviy ta'limning asosiy komponenti o'quv materiallari va dasturlarini tayyorlash bo'lib, bunda ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'z darajasiga muvofiq keladigan vazifalarni vaqtda bajarib borishi uning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim asosida o'qitish tizimini tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillar alohida ahamiyatga ega: o'quv jarayonini loyihalashda ishlab chiqilgan didaktik modelning pedagogik tomondan ustuvorligi; yangi informatsion

pedagogik texnologiyalarning maqsadga muvofiqligi; ta'lim mazmunining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligi; axborot va materiallar xavfsizligi; ta'lim oluvchilar bilim darajasining boshlang'ich sifat nazorati shartligi; o'qitish texnologiyasining tizimga mos kelishi; o'quv jarayonining mobiligi va hokazo.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda chat-mashg'ulot, veb-mashg'ulot, telekonferensiya, teleqantashuv kabi shakllari mavjud bo'lib, ularni tashkil etish bir qator bosqichlar amalga oshirilishi mumkin:

kurs maqsadlarini aniqlash: qaysi bilimlarni (mavzular, fan va b.) berish va kimlarni o'qitish kerakligi aniqlanadi;

o'qitish uslublarini tanlash: o'quv jarayoni davomida bilimlar va ko'nikmalar darajasining diagnostikasini amalga oshirish hamda tekshirish manbalari va usullarini aniqlash kerak;

o'quv materialiga uslubiy talablarni ishlab chiqish: yangi bilimlarni berish usullarini va hajmlarni aniqlash kerak;

dars jadvalini ishlab chiqish: butun kursni bir nechta modullarga bo'lish, har bir modul tugagandan keyin talaba qanday bilimlarga ega bo'lishi kerakligini aniqlash lozim;

o'quv jarayoni monitoringini tashkil etish; tekshiruv jarayonlari va mustaqil ishlarni rejalashtirish;

o'quv jarayoni natijalarini oldindan baholash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishning dasturiy ta'minoti va hokazo.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda turli darajadagi ishtirokchilar mavjud bo'ladi. Birinchi navbatda masofaviy kurs muallifini keltirib o'tadigan bo'lsak, u kursni yaratuvchi, yangilovchi va tahrirlovchi shaxs hisoblanadi. Uslubchi esa masofaviy kurs faoliyati bo'yicha muallifga kursni taxrir qilishda ko'maklashuvchi hamda taklif va tavsiyalar berib boruvchi shaxs. Masofaviy ta'lim tizimi o'quv jarayonining samarali faoliyatida psixologik monitoring ham muhim bo'lib, bu vazifa bevosita kurs ruhshunosi tomonidan amalga oshiriladi. Kurs administratori esa, yuqori malakali pedagog-xodimlarni, ta'lim oluvchilarni kursga qabul qilish, kursdan chetlatish vazifasini bajaradi. Shuningdek, bu tizimda informatson dasturlar va telekommunikatsiya resurslari ishini ta'minlovchi shaxs ham jalb etiladi.

Masofaviy ta'lim asosida o'qitish bugungi zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora rivojlanib borayotgan shakli sanaladi. Demak, masofaviy ta'lim tizimi o'qitishning yangicha zamonaviy shakli bo'lib, u ta'lim oluvchining o'quv fanlarni mustaqil o'zlashtirishi, mavjud holatni baholashi, mantiqan yondashgan holda xulosa qilish qobiliyatlarini, kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Bugungi kunda ko'pgina ta'lim muassasalari, yirik korxona va tashkilotlar o'z mutaxassislarini tayyorlashda, malakasini oshirishda ushbu tizimdan keng foydalanib kelmoqda, bu o'z navbatida ta'lim oluvchining mustaqil bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi bilan birga, muammolarsiz amaliy faoliyatni davom ettirishiga katta imkoniyat bermoqda. Masofaviy ta'limning yana bir qulayligi o'qitish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy texnik infratuzilmaning tejalishi bo'lib, moliyaviy xarajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi. Ushbu shaklda amalga oshirilgan masofaviy ta'lim kurslari ta'lim oluvchilarga muayyan bir soha faoliyatining ilg'or yutuqlaridan xabardor qilish, faoliyat uchun zarur kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning kasbiy faoliyati davomida tayyorgarligini doimiy oshirishi, nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llashi orqali kasbiy kompetentligini takomillashtirishda samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mardonov, S. K., & Toshtemirova, S. A. (2020). Classifying the educational system as an innovative approach. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (92), 180-182.

2. Temirov, A. A., Habibulloyev, D. S., & G'ulomov, G'. J. (2021). MASOFAVIY TA'LIMNING BOSHQARUV TIZIMLARI VA XIZMATLARINING UMUMIY TUZILISHI. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 203-212.

3. Allayarova, S. Ya., & Sayitova, U. H. (2021). Masofaviy ta'lim: mazmuni, imkoniyatlari va kamchiliklari. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 930-936.

4. Parpiev A., Maraximov A., Hamdamov R., Begimkulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.

5. Abdukadirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti monografiya / A.A.Abdukadirov, A.X.Pardaev; red. M.Sodikova. - T. O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi, FAN, 2009. - 145 s.

6. Atabaeva K.R. Ta'lim tizimida masofaviy o'qitishning afzalliklari / K.R.Atabaeva. — Tekst: neprosredstvennyy, elektronnyy // Molodoy uchenyy. — 2017. — № 24.1 (158.1). — S. 5-7. — URL: <https://moluch.ru>.

7. Niyozova S. Masofaviy ta'limning afzalligi: Bu tizimning dunyoda keng ommalashishiga sabab nima / <http://hudud24.uz/>.

REZYUME

Maqolada masofaviy ta'lim tizimining o'ziga xosliklari, uning xususiyatlari, masofaviy ta'limni tashkil qilish usul, shakl va vositalari, ahamiyati, masofaviy o'qitish modellari va ularning turlari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны особенности системы дистанционного образования, ее особенности, методы, формы и средства организации дистанционного обучения, значение, модели дистанционного обучения и их виды.

SUMMARY

The article describes the features of the system of distance education, its features, methods, forms and means of organizing distance learning, importance, models of distance learning and their types.

“ТАРБИЯ” ФАНИ ВА УНГА ОИД МЕЪЁРИЙ ҲУЖЖАТЛАР

Жабборова О.М.

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институтини доценти, н.ф.ф.д.(PhD)

Таянч сўзлар: тарбия, назария, фан, асос, меъёр, ҳужжат, ўқитиш, қарор, билим, кўникама, уқув, компетенция, амалиёт.

Ключевая слова: воспитание, теория, наука, основы, нормативны, документ, обучение, решение, знание, навыка, умение, компетенция, практика.

Keywords: education, theory, science, fundamentals, normative, document, training, decision, knowledge, skill, skill, competence, practice.

“Педагогика” фанининг асосларидан бири тарбия масаласидир. Тарбия-шахсда муайян жисмоний, ақлий, рухий, ахлокий ва маънавий сифатларни шакллантиришга қаратилган педагогик жараёндир[1]. Инсоннинг жамиятда яшаши учун зарур бўлган хусусиятларга эга бўлишини таъминлаш йўлида қўлланиладиган чора-тадбирлар мажмуаси тарбияни ташкил қилади. Тарбия инсоннинг инсонлигини таъминлайдиган энг қадимий ва абадий қадриятдир. Тарбиясиз алоҳида одам ҳам, кишилик жамияти ҳам мавжуд бўла олмайди. Чунки одам ва жамиятнинг мавжудлигини таъминлайдиган қадриятлар тарбия туфайлигина бир авлоддан бошқа авлодга ўтади.

Педагогик адабиётларда “тарбия” атамаси кенг ва тор маъноларда қўлланилади[2]. Кенг маънода тарбия инсон шахсини шакллантиришга, унинг жамият ишлаб чиқариши ва ижтимоий, маданий, маърифий ҳаётида фаол иштирок этишини таъминлашга қаратилган барча таъсирлар, тадбирлар, ҳаракатлар ва интилишлар йиғиндисини англатади. Бундай тушунишда тарбия фақат оила, мактаб, болалар ва ёшлар ташкилотларида олиб бориладиган тарбиявий ишларни эмас, балки бутун ижтимоий тузум,